



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari

2-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSİYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА	30-37
<i>To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKİSTON TAJRIBASI	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdumuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)	79-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSİYALARIDAN FOYDALANISH	85-89
---	-------

<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i>	
CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i>	
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i>	
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i>	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i>	
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i>	
MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i>	
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	161-166
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i>	
ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i>	
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i>	
BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAAQQIYOTINING ASOSI	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i>	
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG"	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i>	
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i>	
IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i>	
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI	203-206
<i>Rasulov Azizzon Mukhamadqodirovich</i>	
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI	207-213
<i>Xasanov Boburjon Xakimovich</i>	
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i>	
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i>	
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i>	
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI)	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i>	
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i>	
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i>	
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i>	
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i>	
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i>	
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i>	
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI	282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i>	
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i>	
MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH	290-296
<i>Babajanova Nazokat Davronbekovna</i>	
"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna</i>	
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT"	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i>	
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i>	
TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJYI TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i>	
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i>	
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI	332-338
<i>Babayeva Iroda</i>	
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i>	
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i>	
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA)	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i>	
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	358-363
<i>Mengboev Azizbek Alijon o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i>	
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i>	
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI	379-385
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Muhitdanova Firuza</i>	
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i>	
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat</i>	
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i>	
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxonovich</i>	
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI	420-425
<i>Tuxtashov Sherzod Azimovich</i>	
JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i>	
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMoya QILISH MASALALARI	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i>	
BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuz Kamolovna</i>	
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i>	
RAQAMLI ERA DA SUN'iy INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA	448-455
<i>Juraeva Asal</i>	
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS	456-461
<i>Собиров Сайдбек Махмудович</i>	
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖСПОСОБНОСТИ	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i>	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i>	
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i>	
SUN'YIY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i>	
MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI	492-500
<i>Yusupov O'ktamboy</i>	
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i>	
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	519-523
<i>Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li</i>	
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i>	
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ	537-542
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i>	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i>	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA	577-582
<i>Tleuemuratova Abadan Bekbanovna</i>	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i>	
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i>	
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLILKLARI	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i>	
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY MODELLARI	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i>	
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETI NI ISHLASH METODIKASI	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI	622-625
<i>Elova Sitora Axmatkulovna</i>	
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI	626-629

Received: 25 January 2025**Accepted:** 1 February 2025**Published:** 10 Febrary 2025*Article / Original Paper***THE IMPORTANCE OF THE AGRICULTURAL ORIENTATION INDEX FOR EXPANDING AGRICULTURAL INVESTMENT****Alikulov Mekhmonali Salakhiddin ugli**

PhD, associate professor

Tashkent State University of Economics

E-mail: mehmonali1992@gmail.com

Abstract. The article examines the views of leading world scientists on the importance of the Agricultural Orientation Index in attracting investment in agriculture, discusses the Agricultural Orientation Index (AOI) and its components in detail, analyzes the Agricultural Orientation Index (AOI) in 2022 across a number of countries, and provides substantiated conclusions and proposals to increase the importance of the Agricultural Orientation Index in attracting investment in agriculture in our country.

Keywords: agriculture, investment, investment attractiveness, financial efficiency, agricultural orientation index (AOI), food security, export potential, competitiveness.

**QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARINI KENG JALB QILISHDA
QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI****Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li,**

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni keng jalgan qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksining ahamiyati bo'yicha dunyoning yetakchi olimlarining fikrlari o'rganilgan, qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi (Agricultural Orientation Index, AOI) va uning tarkibiy qismlari batafsil yoritilgan, 2022-yilda qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksining bir qator davlatlar kesimida tahlili keltirilgan, mamlakatimizda qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni keng jalgan qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksining ahmiyatini oshirish bo'yicha asoslanrilgan xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, investitsiya, investitsion jozibadorlik, moliyaviy samaradorlik, qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi (AOI), oziq-ovqat xavfsizligi, eksport salohiyati, raqobatbardoshlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N15>

Kirish. Qishloq xo'jaligi har bir mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki aholini ish bilan ta'minlash va eksport daromadlarini oshirishda asosiy o'rinni tutadi. Biroq, ushbu sohaning rivojlanishi ko'p jihatdan uni moliyalashtirish darajasiga bog'liq. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining ehtiyojlariga nisbatan byudjet resurslarining adekvat taqsimlanishi davlatning qishloq hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka bo'lgan yondashuvini aks ettiradi.

Shu nuqtai nazardan, **Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi (Agricultural Orientation Index, AOI)** qishloq xo'jaligini moliyalashtirish jarayonida strategik mezon sifatida yuksak ahmiyatga ega. U qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan davlat siyosatining qo'llab-quvvatlash darajasini aniqlash imkonini beruvchi muhim iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Indeks davlat xarajatlari va qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsuloti (YaIM) o'rtasidagi mutanosiblikni aniqlab, sohaning umumiy iqtisodiyotda tutgan o'rni va unga qaratilgan e'tiborni baholashga yordam beradi.

Mazkur maqolada qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksining o'ziga xosligi, uni hisoblash usullari va ushbu ko'rsatkichning qishloq xo'jaligini moliyalashtirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, indeksning yuqori yoki past darajada bo'lishi iqtisodiyot va qishloq xo'jaligi sohasining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi yuzasidan mulohazalar bildiriladi. Maqsad — ushbu ko'rsatkichni moliyalashtirish strategiyasini shakllantirishda qanday samarali vosita sifatida qo'llash mumkinligini ko'rsatishdan iborat.

Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi nafaqat iqtisodiy tahlil vositasi, balki davlat siyosatining qay darajada muvozanatli va manzilli ekanligini o'lchash imkonini beradigan indikatordir. Bu yo'nalishda samarali moliyalashtirish modellarini joriy etish esa milliy rivojlanishning muhim omili sifatida e'tirof etilishi zarur.

Adabiyotlar sharhi. Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni keng jalg qilishda qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi va boshqa indekslarning ahamiyati bo'yicha dunyoning bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib. Ulardan, N.I.O'raqovning ta'kidlashicha, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlanishdagi uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash doimo zarur. Uning fikriga ko'ra, sohadagi samaradorlik ko'rsatkichlarining tushib ketishiga investitsiyalar hajmining qisqarishi, mahsulotlar narxlarining dispariteti va ishlab chiqarish qurollarining eskirishi kabi omillar sabab bo'lmoqda. Shuningdek, u rivojlangan davlatlar tajribasiga asoslanib, fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash orqali butun qishloq xo'jaligini rivojlanish mumkinligini ta'kidlaydi[1].

R.H.Bozorov o'z tadqiqotlarida investitsiya muhitining omillari va xususiyatlarini o'rganib, xorijiy investitsiyalarni jalg qilish milliy iqtisodiyotning xalqaro indekslardagi ishtirokiga bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, investitsiya muhitini yaxshilash orqali iqtisodiyotga investitsiyalarni jalg qilish samaradorligini oshirish mumkin[2].

R.X.Mirzaxmedov "Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishdagi davlat siyosatining roli" nomli tadqiqotida, davlatning qishloq xo'jaligini moliyalashtirishdagi roli va davlatning investitsiya strategiyalari haqida fikr yuritadi. Uning fikricha, davlat siyosati moliyaviy manbalarni to'g'ri taqsimlash va ularni samarali boshqarishga qaratilgan bo'lishi kerak. Davlatning qishloq xo'jaligini moliyalashtirishdagi tadbirlari ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan[3].

G.Shakirova va M.Qozoqova O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalg etishni faollashtirish yo'llarini o'rganib, investitsion iqlimni yaxshilash va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish uchun xalqaro reytinglardagi o'rinni yaxshilash muhimligini ta'kidlaydilar[4].

Xalqaro reyting agentliklari tomonidan reyting baholarni shakllantirish metodikalari va tamoyillarining sharhidan bu baholarning darajasiga moliyaviy va nomoliyaviy parametrlar ta'sir ko'rsatishi mumkin[5]. Masalan, nomoliyaviy tashkilotlar reytingini prognoz qilishda moliyaviy indikatorlar bilan bir qatorda ularning o'lchami va yetukligi ko'rsatkichlari ham qo'llaniladi[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni keng jalb qilishda qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksining ahamiyati bo'yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma'lumotlarni toplash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Qishloq xo'jaligi har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. U nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, balki ish o'rnlari yaratish, qishloq hududlaridagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va milliy eksportni rivojlantirishning asosiy manbai hisoblanadi. Shu sababli, qishloq xo'jaligiga davlat tomonidan qaratilgan e'tibor va uni moliyalashtirish darajasi iqtisodiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Biroq, qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishiga bo'lgan yondashuvlar turli mamlakatlarda farqli bo'lishi mumkin. Ayrim davlatlarda qishloq xo'jaligiga nisbatan katta miqdorda moliyalashtirish va investitsiya kiritilayotgan bo'lsa, boshqalarda bu tarmoq ikkinchi darajali e'tiborga ega. Ana shunday sharoitlarda, qishloq xo'jaligiga davlat xarajatlari va yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'rtasidagi mutanosiblikni baholash uchun Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi (Agricultural Orientation Index, AOI) muhim vosita hisoblanadi.

Indeksning dolzarbligi shundaki, u davlat xarajatlari siyosati qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagagi ahamiyatiga qay darajada mos kelishini baholash imkonini beradi. AOI orqali qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan mablag'lar qay darajada samarali taqsimlanayotganini, uning umumiyligi iqtisodiy rivojlanishga qanday ta'sir ko'rsatayotganini tahlil qilish mumkin. Bu indeks nafaqat iqtisodiy rejorashtirish, balki davlat siyosati samaradorligini baholashda ham qo'llaniladi.

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi muammosi global darajada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon aholisi soni ortib, oziq-ovqat talablari ham mutanosib ravishda o'sib borayotgan bir vaqtda, qishloq xo'jaligiga yo'naltiriladigan investitsiyalar va moliyaviy ko'makning yetarli bo'lishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar qishloq xo'jaligiga sarflanayotgan mablag'lar mamlakat iqtisodiyotidagi uning umumiyligi o'rniga mos kelmasa, bu nafaqat ichki bozordagi muammolarga, balki eksport sohasidagi imkoniyatlarning cheklanishiga ham olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunda ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo'jaligi tarmog'ini moliyalashtirishda yetarlicha e'tibor qaratmayotgani natijasida qator iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarni samarali hal qilish uchun davlat xarajatlarini qayta ko'rib chiqish, resurslarni maqsadli taqsimlash va qishloq xo'jaligi tarmog'ining muhimligini hisobga olish zarur. Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi aynan shu vazifani amalga oshirish uchun mezon vazifasini bajaradi.

Qishloq xo'jaligiga ajratiladigan mablag'larning umumiyligi davlat byudjetiga nisbati va qishloq xo'jaligi YAIMning jami YAIMdagi ulushi o'rtasidagi muvozanat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rinni tutadi. Agar qishloq xo'jaligi tarmog'i davlat siyosatida yuqori ustuvorlikka ega bo'lsa, bu nafaqat mahsulot yetishtirish hajmini oshirishga, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, sug'orish tizimlarini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishchilari uchun yaxshi sharoitlar yaratishga yordam beradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan moliyalashtirish nafaqat tarmoqni muvaffaqiyatli rivojlantirish, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Masalan, Yevropa Ittifoqida qishloq

xo'jaligiga ajratilgan moliyaviy yordam iqtisodiy barqarorlik va oziq-ovqat mahsulotlari eksportini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bu yerda qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi orqali moliyalashtirish samaradorligi muntazam tahlil qilib boriladi.

O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Mamlakatdagi yalpi ichki mahsulotda qishloq xo'jaligi ulushi yuqori bo'lib, u aholining katta qismini ish bilan ta'minlaydi. Biroq, tarmoqqa yo'naltirilayotgan moliyalashtirish va investitsiyalarning yetarli darajada emasligi uning rivojlanish imkoniyatlarini cheklab kelmoqda. Bu esa ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshlikni pasaytiradi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi resurslarning samarali taqsimlanishi uchun strategik vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Indeksning past ko'rsatkichi shundan dalolat beradiki, qishloq xo'jaligi sohasiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish va unga ajratiladigan davlat xarajatlarini oshirish zarur. Bu esa oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligining oldini olish, qishloq joylaridagi ish o'rinxarajatlarini ko'paytirish va aholi daromadlarini oshirish uchun muhim qadam bo'ladi.

Shu bilan birga, yuqori indeksga erishish uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Bu yondashuvga quyidagilar kiradi:

1. Qishloq xo'jaligi sohasiga ajratiladigan davlat xarajatlarini manzilli ravishda taqsimlash.
2. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni oshirish.
3. Ilmiy tadqiqotlar va yangi texnologiyalarni joriy etishga ko'mak berish.
4. Xalqaro tajribalardan foydalanish orqali qishloq xo'jaligiga qaratilgan siyosatni takomillashtirish.

<i>Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi (AOI) =</i>	<i>Qishloq xo'jaligiga ajratilgan davlat xarajatlari</i>
	<i>Jami davlat xarajatlari</i>
	<i>Qishloq xo'jaligi Yalm</i>

1-jadval

Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi (AOI)ning tarkibiy qismlari

Ko'rsatkichlar	Mazmuni	Ichki tarkibi
Qishloq xo'jaligiga ajratilgan davlat xarajatlari (Agricultural Expenditure)	Davlat byudjeti orqali qishloq xo'jaligi sohasiga yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lar.	Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi (sug'orish tizimlari, yo'llar). Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar. Subsidiya va grantlar. Xavf-xatarlarni boshqarish (masalan, sug'urta dasturlari). Qishloq joylarida ta'lim va sog'liqni saqlash.
Jami davlat xarajatlari (Total Government Expenditure)	Davlatning barcha sohalarga ajratgan umumiy xarajatlari.	Ta'lim, sog'liqni saqlash, mudofaa, infratuzilma va boshqa tarmoqlarga qaratilgan xarajatlar. Qishloq xo'jaligi xarajatlari ushbu umumiy byudjet ichida hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi YaIM (Agricultural GDP)	Qishloq xo'jaligi tarmog'ining yalpi ichki mahsulot (YaIM) ichidagi hissasi.	Yetishtirilgan mahsulotlar qiymati (don, meva, sabzavotlar, bog'dorchilik mahsulotlari). Qishloq xo'jaligiga oid xizmatlar. Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq sanoat mahsulotlari (masalan, qayta ishslash).
Jami YaIM (Total GDP)	Mamlakatning umumiyl iqtisodiy ishlab chiqarish darajasi.	Barcha tarmoqlar (sanoat, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va hokazo)ning ishlab chiqargan mahsulotlari va xizmatlarining umumiyl qiymati.
<ul style="list-style-type: none"> Agar AOI > 1 (1 dan katta) bo'lsa, bu qishloq xo'jaligi davlat siyosatida muhim o'rIN tutayotganini ko'rsatadi. Agar AOI < 1 (1 dan kichik) bo'lsa, qishloq xo'jaligi tarmog'iga e'tibor kamroq qaratilganini bildirishi mumkin. 		

Indeksdagi tarkibiy qismlarning o'zaro aloqasi:

Qishloq xo'jaligiga ajratilgan davlat xarajatlari / Jami davlat xarajatlari → Qishloq xo'jaligiga davlat tomonidan qanchalik e'tibor qaratilganini aniqlaydi.

Qishloq xo'jaligi YaIM / Jami YaIM Qishloq xo'jaligi tarmog'ining umumiyl iqtisodiyotdag'i o'rnini ko'rsatadi.


Indeks hisobi: Yuqoridagi ikki ko'rsatkichning o'zaro nisbati qishloq xo'jaligiga davlat siyosati qanchalik moslashganini baholash uchun asos bo'ladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi (Agricultural Orientation Index, AOI) amaliyotda qo'llanish orqali biz bir qator iqtisodiy maqsadlarga erishishimiz mumkin:

Iqtisodiy tahlil: Davlat siyosati qishloq xo'jaligiga qay darajada moslashganligini baholash.

Solishtirma tahlil: Turli mamlakatlar yoki hududlar o'rtasida qishloq xo'jaligiga bo'lgan e'tiborni solishtirish.

Rejalashtirish: Qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish uchun resurslarning taqsimlanishini yaxshilash.

Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi (Agricultural Orientation Index, AOI) — bu indikator qishloq xo'jaligiga qaratilgan davlat siyosatining intensivligini baholash uchun ishlataladi. Unga asoslanib, davlat byudjeti va milliy yalpi ichki mahsulot (YaIM) darajasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga qanchalik e'tibor qaratilgani aniqlanadi.




1-rasm. 2022 yilda Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi (Agricultural Orientation Index, AOI)* [7]

*Izoh: Agricultural Orientation Index 2023 – 2024 -yilgi hisobotlar hali e'lon qilinmadı.

Yuqorida rasmdan ko'rishimiz mumkinki, Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi (Agricultural Orientation Index, AOI) bo'yicha Shveysariya va Lyuksemburg sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda. Shu o'rinda Markaziy Osiyo mamlakatlari juda past ko'rsatkichlar bilan oxirgi o'rnlarda turibdi.

Shuningdek, bizning iqtisodiyotimizga yaqin bo'lgan mamlakatlarni ham solishtiramiz.



2-rasm. 2010-2022 yillarda Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi bir qator davlatlar kesimida[7]

Yuqorida rasmdan ko'rishimiz mumkinki, Qozog'iston Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi bo'yicha Markaziy Osiyo va G'arbiy Osiyo mamlakatlari ichida anchalama samarali faoliyat yuritmoqda. Keyingi o'rnlarda Armaniston va Moldova Respublikasi egallamoqda. Lekin ta'kidlash lozimki, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, va Turkmaniston ushbu ko'rsatkich bo'yicha juda past o'rinni egallaganini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan

moliyalashtirish nafaqat tarmoqni muvaffaqiyatli rivojlantirish, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Masalan:

Yevropa Ittifoqi (YI): YI davlatlari qishloq xo'jaligiga katta miqdorda subsidiyalar ajratadi. Jumladan, Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan Yevropa Qishloq Xo'jaligi Jamg'armasi tarmoqqa doimiy moliyaviy yordam ko'rsatadi. Bu siyosat nafaqat ichki bozorni barqarorlashtirish, balki eksport hajmini oshirishga ham qaratilgan.

AQSH: AQSHda qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi yuqori bo'lib, davlat byudjetining katta qismi fermerlarni qo'llab-quvvatlashga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga va tabiiy resurslarni boshqarishga sarflanadi. Bu mamlakatda fermerlar uchun subsidiya dasturlari va qishloq joylarida infratuzilmani rivojlantirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Yaponiya: Yaponiyada qishloq xo'jaligiga qaratilgan siyosat mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Davlat fermerlarga moliyaviy yordam ko'rsatish bilan bir qatorda, yangi texnologiyalarni joriy qilish va sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratadi.

Avstraliya: Qishloq xo'jaligi Avstralijaning eksport salohiyatida muhim o'rIN tutadi. Hukumat fermerlarga qishloq xo'jaligi texnikasi, marketing, va tabiiy ofatlarga qarshi sug'urta dasturlarida yordam ko'rsatadi. Bu esa tarmoqning yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Ushbu mamlakatlar tajribasi qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksining ahamiyatini ochib beradi. Ulardagi yuqori indeks ko'rsatkichlari davlatning qishloq xo'jaligi sohasini strategik rivojlanish yo'nalishi sifatida qabul qilganini tasdiqlaydi. Bunday yondashuv nafaqat ichki iste'molni ta'minlash, balki xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshirish uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksi rivojlanish strategiyalarini shakkantirishda mezon sifatida qo'llanilganda, mamlakat iqtisodiyotidagi barqarorlik va taraqqiyotga yangi turtki berish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu nafaqat qishloq hududlarining rivojlanishi, balki umumiy iqtisodiy o'sish va aholi turmush darajasining yaxshilanishiga ham xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni keng jalb qilish va qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksining ahamiyatini mamlakatimizda oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishni rag'batlantirish uchun investorlarga xavfsiz va shaffof qonunchilik asosini ta'minlash.

Qishloq xo'jaligiga yo'naltirilganlik indeksini milliy darajada joriy qilish.

Qishloq xo'jaligida sarmoyalarning ulushini aniq baholash uchun ushbu indeksdan foydalanish.

Investitsiyalarning samaradorligini aniqlash va ularni tarmoqlar bo'yicha taqsimlashda indeksdan foydalanish.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlariga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) dasturlari doirasida xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

Resurs samaradorligi indeksi orqali har bir tarmoqning resurslarni qanchalik samarali ishlatishini baholash.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqarish.

Xalqaro oziq-ovqat xavfsizligi standartlarini joriy qilish.

Barqaror qishloq xo'jaligini ta'minlash uchun ekologik yo'naltirilgan investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash.

Barqaror rivojlanish indeksi orqali qishloq xo'jaligi sohasining ekologik samaradorligini baholash.

Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligi sohasidagi tajribalarini o'rghanish.

Xalqaro indekslar va reytinglardagi mavqeni yaxshilash uchun global tajribalardan foydalanish.

Qishloq xo'jaligida investitsiyalarning ta'sirini muntazam kuzatish va baholash.

Investitsiyalar samaradorligini baholash uchun ko'rsatkichlarni tahlil qilish.

Har yili indeks natijalari asosida hududiy va soha strategiyalarini qayta ko'rib chiqish.

Ushbu tavsiyalar qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishda samaradorlikni oshirishga yordam beradi va sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda yo'naltirilganlik indeksi nafaqat tahlil vositasi, balki davlat siyosatining samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega indikator hisoblanadi. Ushbu indeksga asoslangan holda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish rivojlanish strategiyasining ustuvor yo'nalishi bo'lishi kerak.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'raqov, N. I. (2019). "Qishloq xo'jaligida investisiyalash jarayonining o'ziga xos xususiyatlari", "Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari", 1(4), 5. <https://ejournal.tsue.uz/index.php/economics-innotech/issue/view/3>
2. Bozorov R.H. O'zbekistonning global indekslarda ishtiropini keng ta'minlash – investisiya muhiti jozibadorligini oshirishning muhim omili. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 4-5, avgust-oktyabr, 2018-yil.
3. Mirzaxmedov R.X. "Qishloq xo'jaligini moliyalashtirishdagi davlat siyosatining roli" – Toshkent, 2019.
4. G.Shakirova va M.Qozoqova "Xorijiy investisiyalarni o'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etishni takomillashtirish yo'llari", "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2017 yil
5. Altman E., Saunders A. (1998). "Credit risk measurement: developments over the last 20 years". Journal of Banking & Finance. Vol. 21, pp. 1721–1742.
6. Altman E., Rijken H. (2004). "How rating agencies achieve rating stability". Journal of Banking & Finance. Vol. 28, pp. 2679–2714.
7. Food and agriculture Organization of the United Nation sayti hisobotlari [https://de-public-statsuite.fao.org/vis?fs\[0\]=Sustainable%20Development%20](https://de-public-statsuite.fao.org/vis?fs[0]=Sustainable%20Development%20)

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 2 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).